

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="147 400 663 616">Gidroksipropilmetilsellyuloza asosida yuqori bo‘kuvchan gidrogellar olish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llash</p> 	<p data-bbox="763 357 1120 389">Tadqiqot shakli: Amaliy.</p> <p data-bbox="763 394 1131 426">Ilmiy tadqiqot natijalari:</p> <p data-bbox="696 430 2098 652">Navoiy viloyati hamda respublikamizning suv tanqisligi kuzatiladigan boshqa hududlari uchun mahalliy xomashyolar — xususan, gidroksipropilmetilsellyuloza asosida yuqori samarali gidrogellar ishlab chiqish bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan asosiy ekologik muammolardan biri — suv resurslari tanqisligini bartaraf etishda amaliy yechim taqdim etadi. Mazkur gidrogellar tuproqning namligini uzoq muddat ushlab turish qobiliyatini sezilarli darajada oshirib, chigit va ko‘chatlarning to‘liq, barqaror va tez rivojlanishi uchun ideal agrobiologik muhit yaratadi.</p> <p data-bbox="696 657 2098 879">Aytish joizki, bugungi kunda “Navoiyazot” AJ tomonidan gidroksipropilmetilsellyuloza mahalliy sharoitda muvaffaqiyatli ishlab chiqarilayapti va bu import qilinadigan Na-KMS/kaliy-poliakrilat-SAP gidrogelining zamonaviy, arzon va samarali mahalliy gidrogellar bilan to‘liq almashtirish imkonini beradi. Shu asosda tayyorlangan gidrogellar suv tanqis mintaqalarda daraxtlar, gullar va butalarni ekish, yashil hududlarni barpo etish hamda ularni parvarish qilishda keng qo‘llanilib, sug‘orish uchun talab etiladigan suv sarfini 40–50 foizgacha kamaytirish imkoniyatini yaratadi.</p> <p data-bbox="696 884 2098 1066">Bundan tashqari, mahalliy xomashyo asosida gidrogellar ishlab chiqarish texnologiyasining joriy etilishi suv tanqis va sho‘rxok yerlarda tuproqning sho‘rlanish darajasini pasaytirishga, uning strukturasi tiklashga hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Natijada, qiyin sharoitli hududlarda ham daraxtlar, gullar va butalarni ekish va yetishtirish imkoniyatlari kengayadi, mintaqalarning yashillanishi va agrar potentsiali yangi bosqichga ko‘tariladi.</p> <p data-bbox="696 1070 2098 1181">Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Navoiyazot AJ da amalga oshiriladi va suv tanqis hududlaridagi fermer xo‘jaliklarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="696 1185 2098 1331">Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsifnomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="696 1335 2098 1406">Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Navoiyazot AJ, Uzkimyosanoat AJ yoki Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>